

AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi (14.08.2026 y.)

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2026-yil 14-avgust kuni, soat 10:00 da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o‘tkazildi.

Yig‘ilishga bank Kuzatuv kengashi Raisi Sh.Shermatov raislik qildi.

Yig‘ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a‘zolari, Bosh bankning tarkibiy bo‘linma boshliqlari ishtirok etdi.

Yig‘ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo‘yildi:

1. AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.

2. AT “Aloqabank”ning 2026-yil ish faoliyati bo‘yicha yarim yillik va yillik Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditdan o‘tkazib xulosa tayyorlash xizmatini tanlash bo‘yicha o‘tkazilgan xarid natijalariga ko‘ra g‘olib deb topilgan auditorlik tashkilotini belgilash va u bilan shartnoma tuzish.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar soni 6 624 ta, ularga tegishli bo‘lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni 3 674 450 046 965 donadan iborat.

Elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz>) orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar soni 3 497 621 399 761 tani tashkil etdi. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar jami ovoz beruvchi aksiyalarning 95,19 foizini tashkil etdi.

Umumiy yig‘ilish o‘tkazish uchun kvorum mavjud deb hisoblandi.

Ovoz berish jarayoni elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz>) orqali amalga oshirildi. Bunda ro‘yxatdan o‘tgan 9 nafar aksiyadorning 1 nafari (unga tegishli ovozlar soni 2 407 099 049 170 donani tashkil etadi) ovoz berishda yozma byulletenlardan foydalandi. Ushbu aksiyadorlar tomonidan kun tartibiga kiritilgan masalalarga berilgan ovozlar sanoq komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz>) platformasiga kiritildi.

Kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

№	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1.	AT «Aloqabank» aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash	100,00	3 497 621 399 761	-	-	-	-
2.	AT «Aloqabank»ning 2025-yil ish faoliyati yakunlari bo‘yicha bank Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash	100,00	3 497 621 399 761	-	-	-	-

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qaror(lar):

1. AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

Qabul qilingan qaror(lar):

1. AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlandi.

2. AT “Aloqabank”ning 2026-yil ish faoliyati bo'yicha yarim yillik va yillik Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditdan o'tkazib xulosa tayyorlash xizmatini tanlash bo'yicha o'tkazilgan xarid natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan auditorlik tashkilotini belgilash va u bilan shartnoma tuzish.

Qabul qilingan qaror(lar):

1. Bankni majburiy tashqi auditdan o'tkazish bo'yicha tashqi auditorlik tashkilotini tanlash jarayoni davlat xaridlari tartib-taomillari asosida o'tkazilganligi, shuningdek tanlov yakunlariga ko'ra g'olib deb topilgan tashqi auditorlik tashkilotini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish yuzasidan Kuzatuv kengashining 2026-yil 23-iyuldagi 030-sonli yig'ilish bayonida keltirilgan tavsiyasi ma'lumot uchun qabul qilindi.

2. AT “Aloqabank”ning 2026-yil ish faoliyati bo'yicha Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq tayyorlangan yarim yillik va yillik moliyaviy hisobotlarini auditdan o'tkazish va xulosa tayyorlash uchun o'tkazilgan xarid natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan “PricewaterhouseCoopers” auditorlik tashkiloti belgilandi.

3. Bank Boshqaruvi Raisiga (K.Irisbekova) “PricewaterhouseCoopers” auditorlik tashkiloti bilan belgilangan tartibda xizmat ko'rsatish shartnomasini imzolash vakolati berildi (vazifasi yuklatildi).
